

MAQOLLARNING MILLIY KO‘RINISHLARI

*Anvarjonova Sadiya Alisher qizi,
Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining maqol janri va ularning lingvistik talqini borasida mulohaza yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, maqollar tadqiqida ularning milliy-madaniy xususiyatlariga e’tibor berish ularning xalqimiz ifoda etgan shakllariga e’tibor qaratish maqollarga xos lingvomadaniy jihatlarni ochiqlashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: maqollar, milliy-madaniy xususiyatlar, lingvistik tahlil, o‘zbek madaniyati, talqin.

Abstract: This article discusses proverbs, a special type of folk oral art, and their linguistic interpretation. It should be noted that in the study of proverbs, paying attention to their national-cultural characteristics, paying attention to their forms of expression in the culture of our people, allows us to reveal the linguistic and cultural aspects inherent in proverbs.

Key words: proverbs, national-cultural characteristics, linguistic analysis, Uzbek culture, interpretation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пословицы, особый вид народного устного искусства, и их лингвистическая интерпретация. Следует отметить, что изучение пословиц, уделяя внимание их национально-культурным особенностям, а также формам их выражения в культуре нашего народа, позволяет выявить языковые и культурные аспекты, присущие пословицам.

Ключевые слова: пословицы, национально-культурные особенности, лингвистический анализ, узбекская культура, интерпретация.

Barchamizga ma’lumki, har bir xalqning tarixi, maishiy turmush tarzi va dunyoqarashi uning tilida, xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘zining go‘zal aksini topadi. Ana shunday xalqlarning milliy-madaniy turmush tarzini ifoda etuvchi xalq og‘zaki ijodining maxsus turiga doir janrlardan biri bu – xalq maqollaridir. Maqollar – xalq donishmandligi ramzi bo‘lib, ularni faqatgina jumladan tashkil topgan butunlik deb o‘ylash mutlaqo xato. U xalqimizning asrlar davomida jamlangan, o‘zbek madaniyatiga xos hayotiy tajribalarning ixcham va obrazli ifodasidir.

Antroposentrik tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, chunonchi, lingvokulturologiya doirasida maqollarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ularning zahirida aks etgan semantik ma’nolarni aniqlash hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega mavzulardan hisoblanadi [4:55].

Maqollar tilning naqadar boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi asosiy vositalardan biri sanalib, ularda milliy madaniyat to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi. Masalan, o‘zbek xalq maqollarida mehmondo‘stlik, oila, mehnatsevarlik, ilm egallash kabi mavzular qadriyatlar markazidan asosiy o‘rin egallaydi [3:61]. Maqollardan o‘rin olgan har bir so‘z ma’lum bir ma’no tashish xarakteriga egaligi bilan tilshunoslik ilmidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqollarda aks etgan milliy xususiyatlarning talqin etilishiga ko‘ra ularni uch guruhga klassifikatsiya qilish maqsadga muvofiq:

Tarkibida etnografizmlar ishtirok etgan maqollar

Tarkibida milliy onomastik ifodalar qatnashgan maqollar

Hayotiy qadriyatlar aks etgan maqollar

1-chizma. Maqollarda aks etgan milliylik xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsion guruhlanishi

Dastlabki guruh tarkibida etnografizmlarning ishtirokiga ko'ra klassifikatsiyalanadi. N. Omonturdiyev etnografizmlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Etnografik tilshunoslik ma'lum millat, elat, urug'ning moddiy va ma'naviy madaniyati hamda uning tildagi ahamiyatini o'rganadi, leksemalarni lug'atlashtiradi. Mana shu lug'atga ko'chgan etnomadaniy birliklar etnografizm deb ataladi". Demak, ushbu turga oid maqollar tarkibida xalqning kiyim-kechagi, taomlari va uy-ro'zg'or buyumlari bilan bog'liq so'zlarning qo'llanilishi ko'zga tashlanadi, masalan, chopon, tandir, osh va hokazo.

T/r	Maqollar	Izoh
1	Ish desa og'riydi oshiq-moshig'im, Osh desa tayyor katta qoshig'im.	<i>Keltirilgan maqolda "osh" madaniy kod vazifasini bajarmoqda.</i>
2	Kambag'alni urma, so'kma, To'nini yirt.	<i>"To'n" – milliy-madaniy xususiyatga ega asos.</i>
3	Non ham non, ushog'i ham non	<i>"Non" – o'zbek xalqi madaniyatida alohida qadrlanuvchi ne'mat.</i>
4	Beshik bolasi – bek bolasi	<i>"Beshik" madaniy kod vazifasida kelgan, qadim davrlardanoq beshikda katta bo'lib ulg'aygan bolalar "bek bola" deb e'tirof etilgan.</i>
5	Nomi ulug', supراسi quruq.	<i>"Supra" – madaniy kod.</i>
6	Tegirmon navbati bilan	<i>"Tegirmon" – madaniy kod.</i>

1-jadval. Tarkibida etnografizmlar ishtirok etgan xalq maqollari

Tarkibida milliy onomastik birliklar ishtirok etgan maqollar klassifikatsiyaning ikkinchi guruhiga oid [2:46]. Bunda muayyan geografik joylar yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq maqollar xalqning madaniy turmush tarzi bilan bevosita bog'liqlik kasb etadi, chunonchi:

*Gap desa qop-qop,
Ish desa Samarqanddan top [1:88].*

Beva ayolga Buxorodagi it ham huradi [1:95].

kabi maqollarda O'zbekiston hududida joylashgan toponimlar (Samarqand, Buxoro) ishtirok etgan bo'lib, bu aynan milliy maqollar sirasiga kiradi. Biroq ushbu maqollar tarkibida nega aynan Samarqand yoki Buxoroning toponimik birlik sifatida qo'llanganligi borasida fikrlar mavhum qolmoqda. Bizning fikrimizcha, dastlabki maqolda qadimgi davrlarda transport vositalari taraqqiy etmagan bir davrda bir shahardan ikkinchiga borish haftalab vaqt olgan. Samarqand tarixda markaziy shahar bo'lishi bilan birgalikda, ko'plab hududlar uchun manzil o'laroq uzoq masofa to'sqinlik qilgan. Maqol mazmuni esa odamlar gap desa ustalik qiladi, ammo ish deganda bahona izlab, uzoqlarga qochib ketgandek g'oyib bo'ladilar tarzida voqelangan.

Uchinchi turga oid maqollar esa bevosita xalqimizning milliy turmush tarzidagi mavjud an'ana, qadriyat, urf-odatlarining aynan maqollarga "ko'chishi" orqali o'z ifodasini topadi, jumladan, "*Yosh kelsa – ishga, Qari kelsa – oshga*" [1:83] maqolida o'zbek millati orasida qari insonlarning ulug'lanishi, yoshlarning esa hamisha xizmatda shay turishi g'oyasi aks etgan. Yoki "*Mehmon – otangdan ulug'*" [1:83] maqolida esa elat vakillarining mehmonni e'zozlashlari, mehmonning ota kabi azizligi masalasi e'tirof etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalq maqollarning lingvomadaniy tahlili o'zbek xalqiga xos madaniy kodni ifodalashi bilan birgalikda, xalqimizning madaniyati, tarixiy yondashuvi, maishiy hayoti kabilarni ifodalashda ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Umuman olganda, xalq maqollari – xalq madaniyati, xalq milliyatining o'ziga xos ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 2010. – 512 b.
2. Nasretdinova M. N., Saydikramova U. X., Fuzaylova N. A., Fayziyeva A. K., Jabborova Z. T. Analysis of Stylistic Aspects of the Appearance of Ellipsis in Speech. – South Eastern European Journal of Public Health, 2024. – 1676–1680 s.
3. Qodirov F. O'zbek folklorining lingvokulturologik talqini. – Buxoro : BDU nashriyoti, 2021. – 180 b.
4. Xusnitdinovna F. A. “Vatan” tushunchasining o'zbek va ingliz maqollaridagi chuqur ifodasi. – Journal of Innovation in Education and Social Research, 2023. – 23-25 s.
5. Zarifov H., G'ulomov G'. O'zbek maqollari: tahlil va talqin. – Toshkent : O'qituvchi, 2008. – 240 b.
6. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – 390 с.
7. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
8. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2008. – 262 с.

